



PEDAGOGICAL CONDITIONS OF MORAL EDUCATION OF GRADES 5-8 STUDENTS

Pardayeva Lutfiya

Master of the 2nd stage of the pedagogical faculty of Samarkand State University

Annotation

We know from historical written sources that special attention is paid to the education of the next generation at any stage of society's development. To this day, the issue has not lost its relevance, but has risen to the level of public policy. At the heart of the high attention paid by the state to the upbringing of the younger generation, his education is the education of a harmoniously developed person for the development of society, raising the level of their spiritual and moral upbringing.

Keywords: upbringing, ethics, spirituality, culture, student, teacher, competent person, value, knowledge, skill, worldview, personality. Davlatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga, uning bilim olishiga qaratilayotgan yuksak e'tibor negizida jamiyat taraqqiyoti uchun barkamol shaxsni tarbiyalash ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini oshirish masalasi yotadi. Ya'ni axloqiy jihatdan tarbiyalangan shaxslarsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi.

Axloqiy madaniyat – shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va shu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarda foydalanishi o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarini o'z ichiga oladi. Axloqiy madaniyat shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanib, shaxsning o'zgalar bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi. Shaxsning axloqiy madaniyati uning muoamala odobi, etika qoidalariga rioya qilishi, kasbiy odobi hamda o'zgalarga nisbatan munosabatining barcha turlarida ko'rinishi mumkin. [2]

Axloq orqali kishiga insoniy xislatlar singdiriladi bu hislatlar esa uning ijtimoiy faolligini oshirib jamiyatning hozirgi taraqqiyotini tezlashtiradi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, bu tartib qoida ijtimoiy hayotining barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Axloq bizning ongimizga ta'sir qilib, yaxshilik, adolat vaadolatsizlik, umuman, ijobiy va salbiy xatti-harakatlarni belgilab beradi.

Madaniyat dunyo to'g'risidagi tasavvurlar, boyliklari va muayyan turmush tarzining umumiyligi bilan bog'liq bo'lgan odamlar uchun umumiy axloq qoidalari tizimi. Madaniyatni o'zlashtirish, o'rgatish ya'ni o'qitish yordamida amalga oshiriladi. Shaxsning (axloqiy, siyosiy, kasbiy) madaniyati bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, axloqiy qobiliyati, axloqiy va estetik rivojlanish, dunyoqarash, odamlar bilan o'zaro muloqotlarining usullari va shakllari, shaxsiy qobiliyatining rivojlanish darajasi kabi faoliyatida amalga oshiriladigan insoniy kuchlar va qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda mustaqil fikrlaydigan barkamol avlodni tarbiyalashda, avvalombor, uning ongi, axloqiy xislatlari, go'daklikdan to'g'ri shakllanmtirilishi lozim. Albatta, tarbiyalovchi qancha bilimli, dunyoqarashi keng bo'lmasin, o'zining axloqi bilan o'quvchi yoshlarga namuna bo'la olmasa, uning tarbiya jarayonidagi barcha xatti-harakatlari zoya ketadi. Shuning uchun axloqiy tarbiyani biz ijobiy sifatlarimiz orqali yo'naltirishimiz lozim. Xalqimizning azaliy an'analari milliy taraqqiyotiga xizmat qiladigan urf-odatlari, tili, dini, ruhiyati bilan bir qatorda umuminsoniy yutuqlarga sadoqatini tarbiyalashga ham alohida e'tibor berilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da uzlusiz davom etadigan ta'lim-tarbiya jarayonini belgilovchi ta'limning uchinchi bo'g'ini – yuqori talim deb ataladi. Bu ta'lim turiga har tomonlama jiddiy yondashish, e'tiborlilik bilan qarash, ya'ni manaviy - axloqiy sifatlarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Davlatimizning ta'lim sohasidagi eng oliy maqsadi barkamol shaxslarni voyaga yetkazish ishida yuqori sinflarda beriladigan ta'lim-tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Hozirgi kunda ijtimoiy va iqtisodiy tarqqiyot istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, fan va texnika texnologiyalarining zamонавији yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim tizimining asosiy obektlari



o'quvchi yoshlarning axloqiy madaniyatini shakllantirtish, ta'lif mazmunining modellashgan shakllarini amaliyotga joriy etish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Shunday ekan bolalarmi yoshlikdan boshlab uyda, mahallada, mакtabda o'zini tutish qoidalari, muomala madaniyati, kiyinish, yurish-turish, odob-axloqi, mehnatsevar bo'lishi, Vatanni ardoqlash, rostgo'y bo'lish, go'zallikni sevish va go'zallikni yaratishga intilish kabi odatlarga o'rgatish, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning asosini tashkil etadi. Yuqori sinf o'quvchilarini barkamol qilib tarbiyalashda umumbashariy qadriyatlardan bahramand bo'lishliliklariga katta e'tibor berish lozim. Yuqori sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish bugungi kunda pirovard maqsadimizga aylangan.

Yuqori sinf o'quvchilarining

axloqiy madaniyatini shakllantirishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega.

- ta'lif jarayonida axloqiy tarbiyani qo'shib olib borish;
- Ahil-inoq uyushtirilgan, intizomiy jamoa orqali axloqiy tarbiya berish;
- samarali natijalarini kafolatlaydigan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish;
- ijobiy emotsiyonal muhit yaratish. Masalan, Mustaqillik kuni, Navro'z bayramini nishonlash, Avlodlar uchrashganda, ochiq eshiklar kuni, Sog'lom tanda sog' aql kabi tadbirlarni uyushtirish;
- barcha o'quvchi yoshlarni o'quv muassasasidagi umumiy va yagona tartibqoidalarga rioya qildirish.
- tarbiyaviy soatlar, "Ma'naviyat kunlari"ni muntazam o'tkazib borish;
- mehnat, sport ilg'orlari, olimpiada, festival, musobaqalar o'tkazish turli axloqiy, madaniy, badiiy, estetik, teleradio eshittirishlaridan foydalanish;
- ta'lif va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida milliy an'analarimiz aks etgan ma'rifiy asarlarni o'qib o'rganish kabi tarbiya shakllaridan foydalanish. Yuqori sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirishda quyidagi axloqiy tarbiya komponentlaridan foydalanamiz:
- Jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar o'quvchining vatanparvarligi, ma'naviy yetukligi, baynalminallik kabi fazilatlarida aks etadi. Uning ma'naviy madaniyati, Vatan boyliklarini ko'paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi.
- Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash. Bu axloqiy munosabat o'quvchining mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatsevarlikda ifodalanadi.
- Atrofadgi kishilarga axloqiy munosabat. O'quvchining o'z shaxsiy manfaatini jamoatchilik, ko'pchilik manfaatidan ustun qo'ymaslikda aks etadi.
- O'quvchining o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatini tarbiyalashi – bu o'quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Yevropa ta'limida o'quvchining axloqi va tarbiyasini ijobiy shakllantirishda badiiy adabiyotdan keng foydalanar ekanlar. Chunki milliy ruhdagi she'riyatning muhim ahamiyatini millat uchun juda katta xizmat qilishini yaxshi tushunar ekanlar. Adabiyot, eng avvalo, so'z san'atidir, unda jamiyat hayoti o'ziga xos tarzda ifoda etiladi, tasvirlanadi. Badiiy adabiyotning ta'sir kuchini inobatga olib yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy madaniyatni tarbiyalashda o'zbek adabiyoti va jahon adabiyoti, madaniyatini davrlashtirib o'rganish barcha san'at asarlarini batafsil o'rganishni taqozo etadi. Bunday asarlar va badiiy adabiyotdan foydalanish yoshlarimizning axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalanishlarida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shunisi diqqatga sazovorki, badiiy adabiyotimizda aks ettirilgan komil inson tarbiysi yuksak ma'naviy va axloqiy madaniyatning mazmuni, mohiyatini ochishda yoshlarda odob-axloq, milliy ruh va qadriyatlarning o'ziga xosligini anglash va o'z shaxsida kundalik faoliyati davomida ham shunday ajoyib insoniy fazilatlarni hosil qilish istagini uyg'otish zarur bo'ladi.



Yoshlarimizni Vatanga, jamiyatga foydali, savodli, bilimli, madaniyatli, taraqqiyatparvar insonlar bo'lib voyaga yetishlikari uchun axloqiy madaniyatga katta e'tibor berilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, barkamol avlod tarbiyasi barchamizning zimmamizga yuklatilgan. Ayniqsa, bu borada o'qituvchi va pedagoglarning o'rni beqiyos. Zero avlodimizning barkamol bo'lishi ularning yoshligidanoq olgan bilimi, tarbiyasi, axloqi, ko'nikma va malakaliriga bog'liq. Yuqori sinf o'quvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish kamoloti suratlarini tezlashtirish, talim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish tadbirlarini amalga oshirish lozim. Yuqori sinf muassasalarida o'quvchilarining axloqiy madaniyatini tarbiyalash yo'llari keng yo'lga qo'yilmog'i lozim. Bunda o'smirlar bilan ishslash mazmuni ota-onalar va o'qituvchilar jamoasining hamkorligiga asoslangan maqsadga yo'nlatirilgan ish rejali bilan belgilanishi zarur. Biz kelajak avlodni sog'lom, barkamol va buyuk insonlar bo'lib yetishishlari uchun ularning madaniyati, ma'naviy tarbiyasi va aql zakovatini yuksak darajada rivojlanishini taminlab bormog'imiz lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. J.Xasanboev, X.To'raqulov, M.Xaydarov, O.Xasanboeva, N.Usmonov Pedagogika fanidan izoxli lug'at" T-2009 fan va tex. nash. 56-57-bet,
2. Shodihev N. Yangi pedagogik texnologiyalar. O"quv-uslubiy qo"llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2005. – 124 b. 60.
3. Shodihev N., Axrorov Yu., Xolmuxamedov M. Amaliy pedagogik o"yinlar. O"quv qo"llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2005. – 32 b.
4. Erkayev A. Milliy g"oya va ma"naviyat. – Toshkent: Ma"naviyat, 2002. – 240 b.
5. Xayrullayev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg"onish davri madaniyati. – Toshkent: Fan, 1994. – 262 b.